

O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
Agrosanoat majmui ustidan nazorat
qilish inspeksiyasi boshlig'ining
2024-yil "16" - dekabrda
18-B-son buyrug'iga
11-ilova

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi markaziy apparati, hududiy boshqarmalar, va Qishloq xo'jaligi mahsulotlari sifatini baholash markazida korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi markaziy apparati, hududiy boshqarmalar, va Qishloq xo'jaligi mahsulotlari sifatini baholash markazining (*keyingi o'rinlarda – Inspeksiya tizimi*) korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarini rag'batlantirish tartibini belgilaydi.

2. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar berish — tayyorgarlik ko'rilayotgan, sodir etilayotgan yoki sodir etilgan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar berish;

korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashish — korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga qarshi kurashish borasidagi targ'ibot-tashviqot tadbirlarini o'tkazishda bevosita ko'maklashish.

korrupsiyaga oid huquqbuzarlik — Inspeksiya tizimida tayyorgarlik ko'rilayotgan, sodir etilayotgan yoki sodir etilgan korrupsiyaga huquqbuzarliklar;

Ichki nazorat tuzilmasi — faoliyati Inspeksiya tizimida korrupsiyani erta aniqlash va oldini olishga, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning tizimli sabablari va shartlarini bartaraf etishga, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslikka, korrupsiyaga qarshi kurash choralari samaradorligini oshirishga, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olishga, korrupsiyaga qarshi kurash standartlari va mexanizmlarini, shuningdek, xodimlar o'rtasida korrupsiyaning barcha ko'rinishlariga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga qaratilgan Inspeksiya tizimining Komplayens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'linmalari va mutaxassislari, ushbu vazifa yuklatilgan xodimlar;

rag'batlantirish — xodimni korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni oldini olish va unga qarshi kurashishdagi faol ishtirokini qo'llab-quvvatlash maqsadida taqdirlash.

3. Quyidagilar korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirish tartibining asosiy vazifalari hisoblanadi:

korruptsiyaga oid huquqbuzarliklarning barvaqt profilaktikasini ta'minlash, bunga imkon berayotgan shart-sharoitlarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etish;

xodimlarning korruptsiyaga oid huquqbuzarliklarga qarshi kurashishdagi faolligini yanada oshirish;

Inspeksiya tizimida korruptsiyaning barcha ko'rinishlariga murosasiz munosabatni shakllantirish;

xodimlarni korruptsiyaga oid huquqbuzarliklarga qarshi kurashishga qo'shayotgan hissalari uchun munosib taqdirlash;

4. Xodimlarni rag'batlantirish qonuniylik, adolatlilik; xolislik, oshkoralik, shuningdek, xodimlarning xohish-istaklarini hisobga olish prinsiplari asosida amalga oshiriladi.

5. Rag'batlantirish bir martalik pul mukofoti, esdalik sovg'a hamda tashakkurnoma shaklida belgilanadi.

2-bob. Korruptsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korruptsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirish turlari

6. Korruptsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan xodimlar Ichki nazorat tuzilmasiga bergan xabari asosida bunday huquqbuzarlik fosh etilganda bir martalik pul mukofoti bilan rag'batlantiriladi.

7. Korruptsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlar esdalik sovg'a hamda tashakkurnoma bilan bilan rag'batlantiriladi.

8. Ushbu Nizomning 6-bandida nazarda tutilgan holatlar haqida ikki va undan ortiq xodim Ichki nazorat tuzilmasiga xabar bergan taqdirda, bu haqda birinchi bo'lib xabar bergan xodim rag'batlantiriladi.

9. Korruptsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan xodimlar huquqbuzarlik ijtimoiy xavfidan kelib chiqqan holda bazaviy hisoblash miqdorining (BHM) 3 (uch) barovarigacha bir martalik pul mukofoti bilan rag'batlantiriladi.

10. Korruptsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarga rag'batlantirish uchun beriladigan esdalik sovg'a qiymati bazaviy hisoblash miqdori (BHM)ning 3 (uch) baravaridan oshmasligi lozim.

Tashakkurnoma shaklida rag'batlantirish masalasi bevosita Ichki nazorat tuzilmasi tomonidan ko'rib chiqiladi.

3-bob. Korruptsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korruptsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirish manbalari, ularni ta'qibga olinmaslik kafolatlari

11. Xodimlarni rag'batlantirish to'g'risidagi takliflar Ichki nazorat tuzilmasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasiga (*keyingi o'rinlarda – Inspeksiya boshlig'i*) xodimlarni rag'batlantirish bo'yicha bildirgi kiritish orqali amalga oshiriladi.

12. Xodimlarni rag'batlantirish yuzasidan zarur hujjatlarni yig'ish va rasmiylashtirish Ichki nazorat tuzilmasi tomonidan bajariladi.

13. Bildirgiga rag‘batlantirish uchun asos bo‘luvchi quyidagi ma’lumotlar ilova qilinadi:

Inspeksiya tizimi xodimlariga nisbatan qasddan sodir etilishi rejalashtirilayotgan yoki sodir etilgan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

tayyorgarlik ko‘rilayotgan, sodir etilayotgan yoki sodir etilgan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar berilishi natijasida jinoyatning fosh etilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

jinoyatni to‘xtatish va uni to‘liq fosh etishda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga faol ko‘maklashganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar;

aholi .o‘rtasida korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar profilaktikasi hamda jinoyatchilikka qarshi kurashish borasidagi targ‘ibot va tadbirlarda faol ishtirok etganligi to‘g‘risida ma’lumotla.;

14. Xodimlarni rag‘batlantirish to‘g‘risidagi bildirgi Inspeksiya boshlig‘i tomonidan ko‘rib chiqilgandan so‘ng tegishli tartibda rag‘batlantirish choralarini ko‘rish uchun Ichki nazorat tuzilmasiga yuboriladi.

15. Xodimlarni pul mukofotlari va esdalik sovg‘alar bilan taqdirlash xarajatlari Kengash yig‘ilish bayoniga asosan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasining byudjetdan tashqari mablag‘lari hisobidan hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

16. Ichki nazorat tuzilmasi xodimlarni rag‘batlantirish uchun Inspeksiya boshlig‘i tomonidan ko‘rib chiqilgan bildirgini va Nizomning 13-bandida ko‘rsatilgan ma’lumotlarni uch ish kuni ichida Inspeksiyaning Moliya-iqtisod bo‘limiga taqdim etilishini ta’minlaydi.

17. Kengash tomonidan rag‘batlantirishga oid hujjatlar olingan kundan boshlab besh ish kuni ichida taqdim etilgan hujjatlarning to‘liqliligi, asosililigi hamda ushbu Nizom talablariga rioya qilinganligi ko‘rib chiqiladi.

18. Rag‘batlantirish uchun taqdim etilgan hujjatlar to‘liq emasligi hamda ushbu Nizom talablariga rioya qilinmaganligi aniqlangan taqdirda, ikki ish kuni ichida Ichki nazorat tuzilmasiga qaytariladi.

Qaytarilish uchun asos bo‘lgan holatlar bartaraf etilgan taqdirda, tegishli hujjatlar ushbu Nizom talablari asosida rag‘batlantirish uchun qayta taqdim etilishi mumkin.

19. Kengash korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan xodimlarni bir martalik pul mukofoti yoki esdalik sovg‘asi bilan taqdirlash haqida qaror chiqaradi.

Bir martalik pul mukofoti o‘n ish kuni ichida xodimlarning shaxsiy bank plastik kartalariga o‘tkazib beriladi, esdalik sovg‘asi esa sovg‘a qilinadigan buyum qonunchilik hujjatlariga muvofiq xarid qilingandan so‘ng besh ish kuni ichida topshiriladi.

20. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergani yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgani uchun xodimlarni rag'batlantirish ularning shaxsi sir saqlangan holda amalga oshiriladi.

Ichki nazorat tuzilmasi va Kengash a'zolari xodimlarning shaxsiga oid ma'lumotlar oshkor etilmasligi uchun shaxsan javobgar hisoblanadi.

4-bob. Yakunlovchi qoidalar

21. Xodimlar korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga qarshi kurashishga munosib hissa qo'shganligi uchun qonun hujjatlariga muvofiq davlat mukofotlariga ham tavsiya etilishi mumkin.

22. Korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarni mehnat faoliyatidagi himoyasi qonunchilik hujjatlariga muvofiq ta'minlanadi.

23. Rag'batlantirilgan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarning hisobi Ichki nazorat tuzilmasi tomonidan yuritiladi.